

## SHAXS KAMOLOTIDA KITOBNING AHAMIYATI

**Shermetova Nargiza Ikromboy qizi**

*Urganch davlat universiteti*

*Psixologiya yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annatsiya:** Ushbu maqolada shaxs kamolotga erishishida, yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kitob mutolaasi insonni ma'naviy kamolot sari yetaklashi, insonni har tomonlama yetuk, komil shaxs sifatida shakllanishi borasidagi fikrlar bayon etilgan. Jumladan, buyuk mutafakkirlarimiz qarashlarida, g'oyalarida, asarlarida inson kamoloti, ma'naviy yetuklik va bunga erishishda kitobning ahamiyati va ro'liga oid ilmiy nazariy mulohazalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kitob, kitobxonlik, kutubxona, kitobxonlik madaniyati, tashabbus, mutolaa, shaxs kamoloti.

**Аннатоция:** В данной статье изложены взгляды на становление личности, формирование культуры чтения среди молодежи, на то, как чтение ведет человека к духовному совершенствованию, формирует человека как всесторонне зрелую, совершенную личность. В частности, в воззрениях, идеях, трудах наших великих мыслителей освещаются научные теоретические рассуждения о значении и роли книги в достижении человеческого совершенства, духовной зрелости.

**Ключевые слова:** Книга, чтение, библиотека, культура чтения, инициатива, чтение, созревание личности.

**Abstract:** This article describes the thoughts on the maturation of the individual, the formation of a culture of reading among young people, the formation of the book reading leads a person towards spiritual maturity, the formation of a person as a mature, perfect person in every possible way. In particular, in the views, ideas, works of our great thinkers, scientific theoretical reflections on human perfection, spiritual maturity and the importance and role of the book in achieving this are covered.

**Keywords:** Book, reading, library, reading culture, initiative, reading, personality maturation.

Kitob-shaxs shakllanishida, uning dunyoqarashi va ma'naviyati yuksalishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatning har tomonlama yuksak bilim va malakaga ega bo'lishi ushbu davlatning kelajakini belgilab beradi. Bu borada muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning quyida fikrni bildirib o'tganlar.

Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda.

Davlatimizda so'ngi yillarda yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish borasidagi ishlarga katta ahamiyat qaratilyapti. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14-dekabrda № 781-sonli qarori bilan 2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi va boshqa qator hujjatlar soha rivoji uchun dasturul amal vazifasini o'tamoqda. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda № 781-sonli qarori bilan 2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini uch bosqichda amalga oshirish ko'zda tutilgan. I bosqich–2020-2021 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish; II bosqich–2022-2023 yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash; III bosqich 2024-2025 yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash kabi muhim mezonlar belgilangan.[1]

Yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi hamda yuqori sur'at bilan kirib kelishi esa kitobxonlikning jamiyatdagi ahamiyatini yanada oshiradi. Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrda PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlarini keltirishimiz mumkin[2].

Matbuot, nashirlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo'lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjati qabul qilingan. 1677 ta matbaa korxonasi, 118 ta nashriyot davlat ro'yxatiga olingan. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazi, tuman markazlari va shaharlardagi ta'lim muassasalarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazi tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari hamda "Kitob olami", "Sharq ziyokori" va "O'z davkitobsavdota'minoti" majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko'rsatish yo'lga qo'yilgan[3].

Hammamiz kitob o'qishning foydali ekanligini eshitganmiz. Lekin uning foydaliligi aynan nimada ekanligi borasida yetarlicha ma'lumotga ega emasmiz. "AdMe.ru" kitob o'qishning foydaliligi borasida tadqiqotlar olib

bordi va natijalarini e'lon qildi.Unga ko'ra kitob o'qishning 21 ta foydasi bo'lib,ular quyidagilardan iborat:

1.Mutolaa asabni tinchlantiradi.Asabingizni tinchlantirish uchun sayr qilish yoki musiqa tinglashni afzal ko'rasizmi? Sasseks universiteti olimlari esa buning o'rniga kitob o'qishni tavsiya qilishadi. Kitob o'qish asabni tinchlantirishda eng samarali usul ekan. Atigi olti daqiqa kitob o'qish asabiylashishga barham beradi.

2.Mutolaa uyqusizlikdan qutulishga yordam beradi.Xotirjam bo'lish va uxlashga yordam beradigan eng yaxshi usul kitob o'qishdir. Televizor yoki telefondan tarqalayotgan yorqin nur miyaga uyg'onish kerakligi haqida signal yuboradi. Kitob o'qish esa aksincha ta'sir ko'rsatadi – miya uxlash vaqti bo'lganligini tushunadi.

3.Mutolaa qalbni yumshatadi.Kitob o'qish jarayonida o'quvchi qahramonlar bilan birga bo'ladi. Ularning quvonch va tashvishlariga sherik bo'ladi. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, badiiy asar o'qigan odam hayotda ham boshqalarning his-tuyg'ularini yaxshi tushunar ekan.

4.Mutolaa miya faoliyatini yaxshilaydi.Emori universiteti olimlari kitob o'qigan insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo'lishini isbotlashdi. Tadqiqot mualliflari kitob o'qish miyadagi asab tolalari sonini oshirishini ta'kidlashmoqda.

5.Mutolaa tushkunlikka qarshi kurashishga yordam beradi.Shotlandiyalik olimlarning tadqiqotlariga qaraganda, kitob o'qish tushkunlikni davolashning eng samarali vositasidir

6.Mutolaa insonni go'zallashtiradi.Yuqori darajadagi aqliy salohiyat insonning tashqi ko'rinishini ham go'zallashtiradi. Har qanday mavzuda qiziqarli suhbat qura olish va o'z bilimini namoyish etish suhbatdoshining mehrini qozonishga yordam beradi.

7.Mutolaa hayotdagi maqsadini anglashga va qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.Ogayo shtati universiteti olimlari inson qancha ko'p kitob o'qisa, hayot yo'lini shunchalik aniq tanlashini ta'kidlashmoqda. Kitob o'qish hayotdagi to'siqlarni yengishga ham yordam beradi, deyishmoqda ular.

8.Kitob o'qiydigan insonlar hayotda faol bo'lishadi.San'at milliy jamg'armasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar kitob o'qiydigan insonlar madaniy va ijtimoiy hayotda ham faol bo'lishlarini isbotladi.

9.Mutolaa xotirani va fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi.Har safar kitob o'qilganida miya faol ishlaydi. U olinayotgan ma'lumotni saqlash uchun yangi tolalarni yaratadi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, doimiy ravishda kitob o'qiydigan insonlarda fikrlash qobiliyati boshqalarga nisbatan sekinroq pasayar ekan.

10. Mutolaa so'z boyligini oshiradi. Kitob o'qiyotgan paytda notanish so'zlar ham uchrab qoladi. Ularning ma'nosini umumiy mazmuni orqali ham tushunib olsa bo'ladi. Kitob o'qish nafaqat so'z boyligini ko'paytiradi, balki umumiy savodxonlikni ham oshiradi.

11. Mutolaa yozuvchilik qobiliyatini rivojlantiradi. Kitob o'qish jarayonida muallifning yozish uslubi ham o'quvchiga ta'sir ko'rsatadi. Musiqa tinglash jarayonida musiqachining uslubi tinglovchiga o'tgani singari yozuvchining uslubi ham o'quvchining yozish uslubiga ta'sir o'tkazadi.

12. Mutolaa chet tilini o'rganishni osonlashtiradi. Doimiy ravishda kitob o'qish boshqa tillarni o'rganishda yangi so'zlarni oson tushunishga va yodda saqlab qolishga yordam beradi.

13. Mutolaa tinglash qobiliyatini rivojlantiradi. Qanchalik g'alati tuyulmasin, kitob o'qish tinglash qobiliyatini oshiradi, boshqalarni oson tushunishga yordam beradi. Bu ayniqsa, kitobni ovoz chiqarib o'qiganda yanada samarali bo'ladi.

14. Mutolaa ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Obafemi Avolau universiteti pedagoglari boshlang'ich sinf o'quvchilarining mashg'ulotlariga mavzuli komikslarni kiritishganida, suratlar va so'zlar aralashmasi bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishini aniqlashdi. Kitoblar kattalarga ham ana shunday ta'sir ko'rsatadi.

15. Mutolaa Al'tsgeymer xastaligiga chalinishning oldini oladi. Qator tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ko'p kitob o'qigan insonlar Al'tsgeymer kasalligiga kamroq chalinishar ekan. Miya ham xuddi boshqa a'zolar singari qo'llab-quvvatlashga va mashqlar yordamida mustahkamlanishga muhtoj bo'ladi. Kitob o'qish esa bu borada eng samarali usuldir.

16. Birgalikda kitob o'qish ota-onalar va bolalarning o'zaro munosabatlarini yaxshilaydi. Psixologlar birgalikda kitob o'qish jarayonida ota-onalar va bolalar o'rtasida o'ziga xos munosabat o'rnatiladi deb hisoblashadi. Ularning aytishlaricha, bunday munosabat birgalikda televizor ko'rganda aslo paydo bo'lmaydi.

17. Mutolaa moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, umuman kitob o'qimaydigan insonlarning 43 foizi qashshoqlikda yashaydi. Savodli insonlar orasida esa qashshoqlikda yashaydiganlar 4 foizni tashkil etadi.

18. Ko'p kitob o'qiydigan bolalar darslarni yaxshi o'zlashtirishadi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, kitob o'qishni xush ko'radigan bolalar maktabda ham yaxshi o'qishadi. Ular grammatikani ham, matematikani ham yaxshi o'zlashtirishadi.

19. Mutolaa jinoyatchilikning oldini oladi. O'tkazilgan tadqiqotdan ma'lum bo'lishicha, panjara ortida savodxonligini oshirgan jinoyatchilar ozodlikka chiqqanlaridan so'ng boshqa jinoyatchilarga nisbatan jinoyatga 30 foiz kamroq qo'l uradilar.

20. Mutolaa yaxshi hikoyaga'yga aylantiradi. Inson kitobni qancha ko'p o'qisa, hikoya qilish qobiliyati shunchalik oshadi. Keraksiz gaplarni kamroq gapirib, keraklilarini yaxshiroq yetkazadigan bo'ladi.

21. Mutolaa yaxshilik qilishga undaydi. Faol kitobxonlar xayriya ishlari bilan boshqalarga nisbatan uch marta ko'proq shug'ullanishadi. Mutolaa muhtoj insonlarga yordam qo'lini cho'zishga undaydi [4].

Kitob – insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo'lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo'tabar va muqaddas deb hisoblagan. SHuning uchun kitobga muhabbat, uni qadrlash, o'qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Kitobxonlik kecha yoki bugun tug'ilgan emas. Xususan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Abu Abdullo alXorazmiyning "Mafatix al-ulum", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", Xondamirning "Makorim ul-axloq" va Alisher Navoiy, Zahiriddin Boburlarning qator asarlarida kitobxonlikka oid qimmatli fikrlar bayon qilingan. Jumladan, Abdurahmon Jomiyning kitob haqidagi ushbu misralarini keltirishimiz mumkin.

Bilimdonlar so'zi bordur bu bobda:

"Bilimdon go'rda-yu, ilmi kitobda!"

Agar yolg'iz esang, hamdam kitobdur,

Bilim subhidagi nur ham kitobdur. [5]

Sharqda axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiyning kitob haqidagi quyidagi firklariga bir quloq tutaylik: "Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan holi hamrohdir. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik etmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqidirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar etadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham "Kitob aql qal'asidir", deganlar" [6].

Haqiqatdan ham, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir. Yuqorida keltirilgan buyuk allomalarimiz Abdurahmon Jomiy va Muhammad Jabalrudiyning kitob haqidagi benazr fikrlari fikrimiz isbotidir. Ushbu mutafakkirlarimizning kitobni va ilm o'rganishni har bir inson o'z hayotida eng muhim o'ringa qo'yishi kerakligi va shaxs kamolotga yetishida kitobning ahamiyati benihoya katta ekanligini ularning fikrlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kitob insonning eng yaqin do'stidir. Inson qanchalik ko'p kitob o'qisa, ilm o'rgansa shunchalik yuksaladi, dunyoqarashi fikrlashi o'sadi. Bu esa barkamol komil inson shaklanishi uchun asos bo'lib hizmat qiladi. Kitoblar bizni yangi yangi g'oyalar yaratishga ma'naviy va ruhiy jihatdan yetuk bo'lishga undaydi. O'z o'rnida albatta kerakli ma'lumotga va bilimga ega bo'lish uchun kitobxonning yaxshi kitob tanlay olishi ham muhim ahamiyatga egadir. Ernest Xemingueyning ta'biri bilan aytganda: Yaxshi kitob ayzbergga o'xshaydi, yetti-sakkiztasi suv ostida yashaydi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14-dekabrdaqi № 781-sonli qarori  
<https://lex.uz/docs/5160827>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining - Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risidagi. 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli Qarori.  
<https://lex.uz/docs/3338600>

3. <https://kun.uz/uz/50622536>

4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/qoshimcha/rivoyatlar/kitob-oqishning-21-foydasi-haqida.html>

5. KITOB VA MUTOLAA MADANIYATI Metodik-bibliografik qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent – 2010

6. Mashriqzamin-hikmat bo'stoni. -Toshkent, 1997.